TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUG'ANIYEV ABDULAZIZ ALISHER O'G'LI

INVESTITSIYALARNI FOND BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on economical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUG'ANIYEV ABDULAZIZ ALISHER O'G'LI

INVESTITSIYALARNI FOND BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3729 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tojiyev Rahmatilla Raxmonovich**
	iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponetlar:	**Xudoyqulov Xurshid Xurramovich**
	iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Raxmonov Dilshod Alijonovich
	iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "09.09" kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1744 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75, faks: (99871) 239-28-75; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil "26" 08 dagi 68- raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi asosiy drayverlardan biri kapital bozorining rivojlanishi hisoblanadi, ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiyoti asosan fond bozorlariga tayanadi va kapital bozorlari taraqqiy etgan mamlakatlarda mahalliy biznes uchun milliardlab xorijiy investitsiyalarni osongina jalb qilish mumkin. Xalqaro miqyosda fond bozori orqali investitsiyalarni moliyalashtirish iqtisodiy o'sishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Investorlar uchun esa likvid va daromadli aktivlarga sarmoya kiritish imkonini yaratadi. 2024-yilda dunyo bo'yicha fond bozori kapitalizatsiyasi 130 trillion AQSh dollaridan o'sdi, global YaIMning o'rtacha 100–120 foizini tashkil etdi, 1500 dan ortiq subyektlar IPO orqali umumiy qiymati 250 milliard dollardan ortiq kapital jalb qilgan bo'lib, bu esa fond bozori global investitsion faoliyatda muhim o'rin egallayotganini namoyon etadi[1]. Investisiyalarni fond bozori orqali moliyalashtirishni takomillashtirish, kapitalning samarali taqsimlanishi, investisiya muhitining shaffofligi va bozor mexanizmlari orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon moliyaviy resurslarni to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish imkonini yaratib, innovatsion loyihalar va xususiy sektor faolligini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish, korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash va institusional investorlar ishtirokini kengaytirish orqali investitsiya faoliyatining barqarorligi va xavfsizligi ta'minlanadi. Natijada, milliy iqtisodiyotlarning moliyaviy barqarorligi kuchayib, xalqaro kapital oqimlarini jalb etish imkoniyatlari kengayadi.

Jahonda investitsiyalarni fond bozori orqali moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida kapital bozorining institutsional asoslarini kuchaytirish, korporativ shaffoflikni ta'minlash va hisobdorlikni oshirish orqali investorlar ishonchini mustahkamlash, moliyaviy vositalarning diversifikasiyasini ta'minlash, raqamli texnologiyalar va blokcheyn asosida fond amaliyotlarini avtomatlashtirish, shuningdek, kichik va o'rta biznes subyektlarining kapital bozori orqali moliya resurslariga chiqishini yengillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, makroiqtisodiy barqarorlik va huquqiy muhitni yaxshilash orqali xalqaro investitsiya oqimlarini jalb qilish, shuningdek, ESG mezonlari asosida barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish ham zamonaviy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekistonda investitsiyalarni fond bozori orqali moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar qatorida kapital bozorining institutsional rivojlanishini ta'minlash, xususiy va davlat korxonalarini aksiyalashtirish jarayonlarini jadallashtirish, shaffoflik va hisobdorlik mezonlarini joriy etish orqali investorlar ishonchini mustahkamlash hamda yangi moliyaviy

---

[1] https://www.bloomberg.com/news/articles/2025-08-22/e-commerce-firm-pattern-files-for-ipo-showing-revenue-growth

instrumentlarni – korporativ obligatsiyalar, investitsiya fondlari, REIT va IPO mexanizmlarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy tijorat banklarining fond bozoriga chiqishini tartibga solish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini keng joriy etish, raqamli platformalar orqali brokerlik xizmatlarini kengaytirish va aholi hamda institutsional investorlarni jalb qilish orqali bozorning likvidligini oshirishga qaratilgan islohotlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Bunday chora-tadbirlar moliya sektorida samaradorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, iqtisodiyotni diversifikasiya qilish va xususiy sektor faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fond bozori rivojlanishining hozirgi bosqichidagi asosiy tendensiya investitsiya mahsulotlarini diversifikatsiya qilish maqsadida zamonaviy moliyaviy vositalarni yaratish orqali infratuzilmani takomillashtirishdan iborat. Bundan tashqari, aktivlarni tokenizatsiya qilish maqsadida blokcheyn texnologiyasini joriy etish O'zbekiston Respublikasida kapital bozori infratuzilmasini sezilarli darajada takomillashtiradi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ""O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-son "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 13-apreldagi PQ-6207-son "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 16-iyuldagi PQ-3857-son "Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 21-iyuldagi PQ-3877-son "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnoligiyalar rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikamizdagi fan va texnologiyalar taraqqiyotining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» mavzusidagi ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali kapital bozorining rivojlanishi ko'plab xorijiy olim va tadqiqotchilar, shuningdek, o'zbekistonlik olimlar tomonidan o'rganilib, ilmiy-amaliy takliflar kiritilmoqda. Xorijiy olimlardan T.B.Atje, N.C.Voghouei, X.K.Robinson, Yu.Peia, I.M.Roszbach, S.V.Kitanovich, K.E.Krstich, J.Levin, F.Villiamson, R.Huybens, A.Smit, X.Bek singari olimlarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash joiz[2].

---

[2] Aitken, M. J., Harris, F. H., & Ji, S. (2009a). Trade-Based manipulation and market efficiency: A cross-market comparison. Paper presented at 22nd Australasian Finance and Banking Conference, November 18, 2009, Sydney, 6

O‘zbekistonda fond bozorini rivojlantirishning dolzarb masalalari X.Xudoyqulov, A.Ibodullayev, Sh.Mustafoqulov, A.Burxonov, X.Qurbonov, N.Karimov, M.Eshov, S.Elmirzayev, B.Xodiyev, M.Hamidulin, B.Toshmurodova singari olim va amaliyotchilarning tadqiqot ishlarida yoritib berilgan[3].

Ammo bu ishlarda "sekyuritizatsiya" jarayoni, derivativlarni joriy etish, yagona reestr texnologiyasi haqida, ya'ni obligatsiyalarni tokenlashtirish masalalar batafsil o‘rganilmagan. Bu esa o‘z navbatida, investitsiyalarni fond bozori orqali moliyalashtirishвф mazkur mavzuning alohida dolzarbligini bildiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertasiya ishi mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Bozor raqobati sharoitida real sektor tarmoqlari va korxonalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik bazasini takomillashtirish" ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fond bozorlari infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish orqali O‘zbekistonda fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekistonda fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish konsepsiyasini o‘rganish;

qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish metodologiyasini o‘rganish;

qimmatli qog‘ozlar bozorining iqtisodiy o‘sishini harakatlantiruvchi omili sifatida tahlil qilish;

O‘zbekistonda fond bozori rivojlanishining hozirgi holatini o‘rganish;

zamonaviy moliyaviy vositalarning kapital bozorining umumiy infratuzilmasiga ta'sirini aniqlash;

tijorat banklari tomonidan yangi kredit talabnomalarini moliyalashtirish uchun qo‘shimcha pul oqimlarini yaratish maqsadida bank kreditlarini "Ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog‘ozlar" singari asosiy daromadli aktivlarga konvertatsiya vositasi sifatida "sekyuritizatsiya" tushunchasini o‘rganish;

Australia. Retrieved from http://www.cmcrc.com/index.php/rd/academicpapers/academic-papers. Accessed on September 30, 2011. Cherian, J. A., & Jarrow, R. A. (1995). Market manipulation. In R. A. Jarrow, V. Maksimovic, & W. T. Ziemba (Eds.), North-Holland handbooks in operations research and management science (Vol. 9, pp. 611–630). Amsterdam: Elsevier. Schumer, C. E. (2009, July 27). Schumer urges ban on so-called 'flash orders' that give privileged traders sneak peek at stock sales before other investors. Retrieved from http://www.schumer.senate.gov/new_website/record.cfm? id5316252. Accessed on June 12, 2012.

[3] Фонд бозори активларини баҳолаш моделлари таҳлили ва уларнинг назариялари Худойқулов Х.Х. // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. 6-сон, ноябрь-декабрь, 2017 йил. Прогноз бу- башоратми? Худойқулов С.К. // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. 1-сон, январь-февраль, 2018 йил. The Role and Importance of Monetary Policy in the Country's Economy// Ibodullaev A.A. Academic Journal of Digital Economics and Stability (2022). Развитие рынка организованных ценных бумаг в Узбекистане. Ибодуллаев А.А. Бюллетень науки и практики (2021). Уюшган қимматли қоғозлар бозорининг таркибий тузилмасида "Тошкент" Республика фонд биржасининг тутган ўрни. Ибодуллаев А.А. Development issues of innovative economy in the agricultural sector (2021). ANALYSIS OF INDICATORS OF THE REPUBLICAN EXCHANGE" TASHKENT"// A. Ibodullayev International Finance and Accounting (2020). Ходиев Б.Ю. Ўзбекистонда корпоратив бошқарув тизимининг ривожланиши синергик самарага эришиш омили сифатида. /Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида Ўзбекистонда корпоратив бошқарув тизимини такомиллаштириш истиқболлари. Республика илмий-амалий анжумани маърузалари тўплами.

"Toshkent" fond birjasi orqali Oʻzbekiston Respublikasida sekyuritizasiya qoʻllanilishining samarasini aniqlash boʻyicha empirik tadqiqot oʻtkazish;

foiz stavkalarining oʻzgarishi, aholi sonining oʻsishi va ipoteka kreditlarining taqsimlanishi oʻrtasidagi bogʻliqlikni va shuning uchun ularning Oʻzbekiston Respublikasida sekyuritizasiya yoki ipoteka qimmatli qogʻozlarini yaratish jarayoniga qanday taʼsir qilishini ekonometrik tahlil orqali hisoblab chiqish.

Tadqiqotning obyekti "Toshkent" fond birjasi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Oʻzbekistonda fond bozorlarini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, guruhlash, tizimli va iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, istiqbolli prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

investitsiyalarni fond bozori orqali moliyalashtirishni "Toshkent" fond birjasi koʻmagida Sanoat qurilish bankida (SQB) ipoteka bilan taʼminlangan qimmatli qogʻozlarni sekyuritizasiyalash jarayonini joriy etish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

kompaniyalar tomonidan oʻz investitsion loyihasi uchun kapitalni jalb etishda mazkur loyiha umumiy qiymatining 40 foizini bank krediti, 60 foizini esa "Toshkent" fond birjasi orqali amalga oshiriluvchi kompaniya aksiyalarini sotish yoki obligatsiyalar chiqarish orqali taʼminlashga yoʻnaltirilgan "Oʻrta va yirik xususiy kompaniyalar uchun 60/40 nisbat asosida moliyalashtirish dasturi"ni yaratish taklifi ishlab chiqilgan;

davlat obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar singari asosiy daromadli aktivlarni tokenlash uchun aktivlar bilan bogʻliq operatsiyalarni qayd etuvchi raqamli tizimni anglatuvchi taqsimlangan reestr texnologiyasini (DLT) joriy etish orqali investisiyalarni fond bozori orqali moliyalashtirishni takomillashtirish asoslangan;

AJ "Sanoat Qurilish Bank"ning ipoteka bilan taʼminlangan obligatsiya turkumini joriy etish va sifat jihatidan baholashning koʻp omilli balans ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar ipoteka bilan taʼminlangan obligatsiyalarni joriy etishning prognoz koʻrsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

sekyuritizatsiya jarayoni va uni fond bozori orqali yaratishning oʻziga xos xususiyatlari tizimli tahlil qilingan;

Oʻzbekistonda fond bozorini tartibga solishning institusional islohotlari oʻrganilgan;

fond bozorini rivojlantirish samaradorligiga taʼsir etuvchi omillar baholangan;

Oʻzbekistonda zamonaviy moliyaviy qimmatli qogʻozlarni joriy etish orqali fond bozorini rivojlantirishning taklif etilayotgan strategik maqsadlari va tiklanish shartlari oʻrganilgan;

bozordagi oʻzgaruvchanlikdan xejirlash va aksiyalar boʻyicha kompleks vositalarni yaratish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, "Toshkent" fond birjasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Istiqbolli loyihalar milliy agentligining statistik ma'lumotlari va davriy hisobotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflardan kelgusida O‘zbekiston fond bozorini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertasiyada ilgari surilgan amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar, shuningdek, dissertasiya ishining uslubiy ishlanmalariga, fond bozorini rivojlantirishning maqsadli kompleks dasturlarini ishlab chiqish, fond bozori likvidligini oshirish maqsadida investisiya mahsulotlarini kengaytirish sohasidagi tadqiqotlarga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fond bozorlari infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish orqali O‘zbekistonda fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar asosida:

investisiyalarni fond bozori orqali moliyalashtirishni "Toshkent" fond birjasi ko‘magida Sanoat qurilish bankida (SQB) ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog‘ozlarni "sekyuritizasiyalash" jarayonini joriy etish orqali takomillashtirish taklifi AJ "Sanoat Qurilish Bank" tomonidan amaliyotga joiy etilgan (AJ "Sanoat Qurilish Bank"ning 2025-yil 12-martdagi 01-13/5005-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kapital bozorini rivojlantirish, yangi investision instrumentlarni joriy qilish va portfel investision salohiyatini oshirish imkoni yaratilgan;

kompaniyalar tomonidan o‘z investision loyihasi uchun kapitalni jalb etishda mazkur loyiha umumiy qiymatining 40 foizini bank krediti, 60 foizini esa Toshkent fond birjasi orqali amalga oshiriluvchi kompaniya aksiyalarini sotish yoki obligasiyalar chiqarish orqali ta'minlashga yo‘naltirilgan "O‘rta va yirik xususiy kompaniyalar uchun 60/40 nisbat asosida moliyalashtirish dasturi"ni yaratish taklifi AJ "Sanoat Qurilish Bank" tomonidan amaliyotga joiy etilgan (AJ "Sanoat Qurilish Bank"ning 2025-yil 12-martdagi 01-13/5005-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida o‘rta va yirik xususiy kompaniyalar uchun moliyalashtirish dasturini yaratish imkoni taqdim etilgan;

davlat obligasiyalari, korporativ obligasiyalar kabi asosiy daromadli aktivlarni tokenlash uchun aktivlar bilan bog‘liq operasiyalarni qayd etadigan raqamli tizimni anglatuvchi taqsimlangan reestr texnologiyasini (DLT) joriy etish orqali investisiyalarni fond bozori orqali moliyalashtirishni takomillashtirish taklifi AJ "Sanoat Qurilish Bank" tomonidan amaliyotga joiy etilgan (AJ "Sanoat Qurilish Bank"ning 2025-yil 12-martdagi 01-13/5005-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy

taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida chakana investorlar uchun qulay shaklda joriy etish, smart-kontraktlar orqali hisob-kitoblarni butunlay avtomatlashitirish, butun jarayonni aqlli shartnomalar asosida amalga oshirish orqali barcha ishtirokchilar hech qanday vositachi ishtirokisiz yoki vaqtni yo'qotmasdan darhol natijaga ishonch hosil qilish imkoni yaratilgan;

AJ "Sanoat Qurilish Bank"ning ipoteka bilan ta'minlangan obligasiya turkumini joriy etish va sifat jihatidan baholashning ko'p omilli balans ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar ipoteka bilan ta'minlangan obligasiyalarni joriy etishning prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklif AJ "Sanoat Qurilish Bank" tomonidan amaliyotga joiy etilgan (AJ "Sanoat Qurilish Bank"ning 2025-yil 12-martdagi
01-13/5005-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ipoteka bilan ta'minlangan obligasiya turkumini joriy-etish uchun va sifat jihatidan baholashning ko'p omilli balans ekonometrik modeli asosida oxirgi 20 yil davomida (2004-2024) respublika bo'yicha ajratilgan ipoteka kreditlarini (y) ergashuvchi omil va asosiy foiz stavkasining o'zgarishi (2004-2024) (x_1) ta'sir qiluvchi, shu jumladan, aholining o'sishi (2004-2024) (x_2) ta'sir qiluvchi omil sifatida tahlil qilinib, unga ko'ra ipoteka bilan ta'minlangan obligasiyalarni joriy etish maqsadga muvofiq deb topilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan 4 tasi respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 110 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ularning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Korxonalar tomonidan aksiyalar va korporativ obligatsiyalar chiqarish orqali investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish yo'llari"** deb nomlangan birinchi bobida kapital bozori rivojlanishining ilmiy asoslari va uning iqtisodiyotdagi o'rni, shuningdek, birjaga kirish yoki "Toshkent" fond birjasiga korporativ obligatsiyalar chiqarish orqali kapitalni qanday jalb qilish mumkinligi ko'rib chiqilgan. Kapital bozorlarining rivojlanishiga oid juda ko'p

nazariy izlanishlar olib borilgan, korxonalarni moliyalashtirish bosqichlari ham batafsil o'rganilgan tadqiqotlar mavjud. Birinchi bosqichda O'zbekistonda yaxshi rivojlangan bank kreditlari asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ikkinchi bosqich – fond bozorini moliyalashtirish, ya'ni tadbirkorlik subyektlarini o'z loyihalarini moliyalashtirish uchun aksiya va obligatsiyalar kabi qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali kapital jalb qilishda kapital bozorining rivojlanishi korporativ nazoratni amalga oshirish orqali biznesda resurslar to'g'ri taqsimlanishi va mamlakat ichidagi jamg'armalar harakatchanligini ta'minlaydi. Tadqiqotda Toshkent fond birjasi tomonidan ikki asosiy aksiyalar toifasini joriy etish taklif qilingan: "ichki" va "tashqi". "Ichki" toifa UZS (so'm)da kotirovka qilinadigan va asosan mahalliy fuqarolar uchun mo'ljallangan aksiyalarni anglatadi. "Tashqi" esa, aksiyalar AQSh dollarida savdoga qo'yiladigan va asosan xorijiy investorlar uchun mo'ljallangan toifani bildiradi. Ya'ni, mahalliy investorlar faqat mahalliy brokerlik kompaniyalari orqali brokerlik hisob varaqlari ochishlari kerak bo'ladi. "Ichki" rejim taqdim etiladi, ya'ni ular UZSda aksiyalarga sarmoya kiritadilar (1-rasm).

1-rasm. – **Toshkent fond birjasida aksiyalarning turlanishi**[4]

1-rasmda Xorijiy investorlar JSC "Markaziy depozitariy"da "Xorijiy foyda oluvchi shaxs" sifatida ro'yxatdan o'tishlari lozim bo'ladi. Toshkent fond birjasida aksiyalarni ikkita asosiy sinfga — "Ichki" va "Tashqi" sinflarga ajratish mexanizmini ko'rsatadi. "Ichki" aksiyalar asosan mahalliy investorlar uchun mo'ljallangan bo'lib, UZS (so'm)da kotirovka qilinadi va faqat mahalliy brokerlik kompaniyalari orqali hisobvaraqlar ochgan fuqarolar tomonidan sotib olinishi mumkin.

Mahalliy jamg'armalarni fond bozoriga yo'naltirishga, mamlakatda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga olib keladi. Ayni paytda O'zbekistonda

---

[4] Muallif ishlanmasi

kompaniyalar naqd pul oqimini rag'batlantirish va o'z tadbirkorlik faoliyatini yaxshilash uchun asosan bank kreditlariga tayanadi, bu esa moliyalashtirish imkoniyatlari cheklanganligiga olib keladi, chunki fond bozori yangi biznes loyihalarini amalga oshirish uchun mablag' jalb qilish, shuningdek, investorlar kapitalini rag'batlantirish borasida nafaqat biznes uchun, balki mahalliy investorlar uchun ham keng imkoniyatlar yaratishi mumkin. Bundan tashqari, mahalliy korxonalar xorijiy fond birjalariga chiqish orqali xorijiy mablag'larni jalb etishlari mumkin, bu esa xorijiy valyuta kirib kelishini ta'minlaydi. Mamlakatimizda fond bozori faoliyatining qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvarda qabul qilingan "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90-son qarorida "Kapital bozorini yanada rivojlantirish, kapital bozori orqali davlat aksiyalarini xususiylashtirish amaliyotini kengaytirish, davlatning qimmatli qog'ozlarga investisiyalarini rag'batlantirish va moliya bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida ushbu aksiyalar ommaviy taklif qilingan taqdirda, korxona xodimlariga aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqlar berish choralari ko'riladi (ESOP)". Fond bozorining rivojlanishi aksiyalar indeksining vujudga kelishini ta'minlaydi. Shu sababli mamlakatimiz iqtisodiyoti holatini aks ettiruvchi mezon sifatida aksiyalar milliy indeksini yaratish juda muhim, chunki hamma rivojlangan mamlakatlar milliy aksiya indekslariga ega, masalan, Yaponiyada Nikkei 225, Germaniyada Dax, Buyuk Britaniyada FTSE va AQShda S&P 500 tahlilchilar aksiyalar indeksi asosida mamlakatdagi mavjud iqtisodiy vaziyatni o'rganadi va hatto kelajakdagi o'zgarishlarni prognoz qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dissertatsiyaning **"Toshkent" fond birjasi faoliyati tahlili va uning qimmatli qog'ozlar chiqarishda xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'llab-quvvatlashi"** deb nomlangan ikkinchi bobida "Toshkent" fond birjasi faoliyati batafsil yoritilgan, tadqiqot obyektining SWOT tahlili o'tkazilgan. "Toshkent" fond birjasiga mahalliy korxonalarning kirishini rag'batlantirish yo'llari o'rganildi. So'ngra bo'limning ikkinchi yarmida tijorat banklarining kredit portfellarini sekyuritizasiya qilish masalalari muhokama qilinib, jarayonda "Toshkent" fond birjasining o'rni tahlil qilingan, dissertasiya obyekti O'zbekistondagi tijorat banklarini ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, shuningdek, aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (avto, debitor qarzdorlik, kredit kartalari bo'yicha va biznes kartalari chiqarish orqali kreditlarni moliyalashtirish uchun kapital jalb qilishni rag'batlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Mazkur bobning eng muhim qismi "Toshkent" fond birjasining ijobiy, salbiy tomonlari, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar, shuningdek, bartaraf etilishi mumkin bo'lgan tahdidlarni aniqlash uchun SWOT tahlilini o'tkazish hisoblanadi (2-rasm).

Yuqoridagi SWOT tahliliga nazar tashlansa, "Toshkent" fond birjasining kuchli tomonlari haqiqatan ham boshqa parametrlardan ustun ekanligini ko'rish mumkin, boshqacha aytganda, infratuzilmadagi o'zgarishlar, chakana investisiyalarning jadal rivojlanishi, moliyaviy texnologiyalarning tez o'sishi va

Koreya fond birjasi bilan hamkorlik singari tadqiqot predmeti bilan bog'liq 4 ta afzallik mavjud.

Ichki	
Kuchli tomonlar	**Kamchiliklari**
"Toshkent" fond birjasining mavjud afzalliklari	"Toshkent" fond birjasida mavjud kamchiliklar
- infratuzilmadagi o'zgarishlar; - chakana investisiyalarning o'sishi; - moliyaviy texnologiyalarning tez o'sishi; - Koreya fond birjasi bilan hamkorlik	- UCI Milliy indeksi haqida ma'lumot yo'qligi; - Startap loyihalar bozorining yo'qligi
Tashqi	
Imkoniyatlar	**Tahdidlar**
"Toshkent" fond birjasi manfaati yo'lida foydalanish mumkin bo'lgan barcha mavjud imkoniyatlar	"Toshkent" fond birjasi faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi mavjud tahdidlar
- qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysini qayta tuzilishi; - "O'zbekiston respublika valyuta birjasi" AJ huzurida Milliy kliring markazi tashkil etilganligi[5]	- moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi; - kapital bozorida kasbiy professionallik yetishmasligi; - milliy valyutaning qadrsizlanishi

2- rasm. "Toshkent" fond birjasining SWOT tahlili[6]

Birinchidan, O'zbekistonda moliyaviy savodsizlik yuqoriligi bilan bog'liq katta muammo mavjud, chunki ko'pchilik insonlar kelajakdagi iqtisodiy noaniqliklardan himoyalanish uchun qanday qilib investisiya qilish yoki pulni tejash ko'nikmalariga ega emas, shuning uchun bu muammoning javobi mamlakat bo'ylab maktab o'quv dasturlariga moliya, shuningdek, investisiya fanlarini kiritish orqali moliyaviy bilimlarni rivojlantirishdir. Kapital bozorida professionallikning yetishmasligi ham "Toshkent" fond birjasi faoliyatini takomillashtirishda bir qator to'siqlarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, O'zbekistonda kapital bozorida yetarli darajada yuqori malakali xodimlar yo'qligi, boshqacha aytganda, bu mahalliy oliy o'quv yurtlarida iqtisodiyot va moliya ixtisosligi bo'yicha o'qitiladigan investisiya bilan bog'liq fanlar, ya'ni sekyuritizasiya, aktivlarni boshqarish, faravonlikni boshqarish, qimmatli qog'ozlarni boshqarish va boshqa fanlarning yo'qligi bilan bog'liq.

Milliy valyutaning kuchli devalvatsiyasi kuzatilmoqda, bu esa xorijiy investorlarning O'zbekiston qimmatli qog'ozlariga investitsiya kiritishni to'xtatmoqda, albatta, bu muammoni pul-kredit siyosatining ayrim choralarini ko'rish, masalan, foiz stavkasini oshirish, valyuta intervensiyasi (devalvatsiyaga qarshi qisqa muddatli yechim) yoki eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rag'batlantirish yo'li bilan hal qilish mumkin. Xulosa qilib aytganda, bu tahdidlarni, zaif tomonlarni yuqorida aytib o'tilgan takliflar yordamida "Toshkent" fond birjasi va butun kapital bozori manfaati uchun bartaraf etish mumkin.

---

[5] https :// lex . uz
[6] Muallif ishlanmasi

Mazkur bobning ikkinchi yarmida "Toshkent" fond birjasi orqali O'zbekistonda sekyuritizasiya jarayonini tashkil etish usullari o'rganilgan. Lekin birinchi navbatda, sekyuritizasiya asoslarini, boshqacha aytganda, bu nimani anglatishi, aslida qanday ishlashi va boshqa tegishli xususiyatlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Boshqacha aytganda, sekyuritizasiya jarayoni aktivlarni birlashtiradi va ularni foizli qimmatli qog'ozlarga qayta paketlaydi[7].

Emitent keyinchalik moliyaviy aktivlarni, odatda ipoteka kreditlarini, iste'mol kreditlarini yoki hatto tijorat kreditlarini birlashtirish orqali qimmatli qog'ozlarni sotishni rejalashtiradi. Investorlar bunday qimmatli qog'ozlarni sotib olgandan so'ng, ular asosiy (birinchi to'lov) va asosiy aktivlar bo'yicha foiz to'lovlarini oladilar. Mohiyatan, O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoriga qo'llash mumkin bo'lgan sekyuritizasiya jarayonining 3 bosqichi mavjud. Bunda O'zbekistonda urbanizasiya jarayonini rag'batlantirish natijasida turar-joy qurilishi sohasida uy-joyga talab taklifdan ko'pligi kuzatiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, sekyuritizasiya jarayonining aslida uch bosqichi mavjud (3-rasm).

3- rasm. Toshkent fond birjasida sekyuritizatsiya jarayonining tuzilishi[8]

Birinchidan, kredit muassasasi (ba'zi manbalarda kreditning asoschisi sifatida ta'kidlanadi) kredit portfelini (asosan, yuqori kredit reytingiga ega bo'lgan ipoteka

---

[7] https://www.iiste.org/Journals/index.php/JEDS/article/download/35130/36133
[8] Muallif ishlanmasi

kreditlari) Ixtisoslashtirilgan tashkilotga yuborishga tayyorlash uchun balansdan ajratib oladi. Keyin "Toshkent" fond birjasi tasarrufida bo'ladigan Ixtisoslashtirilgan tashkilot, ya'ni "Toshkent" fond birjasida Ixtisoslashtirilgan tashkilot bo'limi tashkil etilishi kerak. Ixtisoslashgan tashkilot kredit portfelini birlashtiradi va uni ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarga (MBS, ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar) sekyuritizasiya qiladi. Nihoyat, bu ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar investorlarga (ham mahalliy, ham xorijiy) taklif etiladi. Biroq qarzni to'lash imkoniyati bo'lmagan, ya'ni defolt bo'lgan holatida, ipoteka (ko'chmas mulk) garov sifatida ishlaydi, boshqacha aytganda, investor o'rniga uyni oladi. Kredit tashkiloti ushbu kreditlar bilan bog'liq kredit xavfining kamida 5 foizi uchun javobgar bo'lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar qiymatining 5 foizi garovga (mulk) qo'shimcha ravishda investorga (defolt holati yuz bersa) to'lanishi kerak.

Ipoteka kreditlarining kelajakdagi tendensiyalarini tahlil qilish uchun ba'zi ekonometrik va statistik vositalardan foydalangan holda empirik tadqiqot o'tkazildi, chunki ular dissertasiyada ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar uchun asosiy aktivlar hisoblanadi. O'zbekistonda 2004-yildan 2024-yilgacha so'nggi 20 yil davomida ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha ba'zi ma'lumotlariga ko'ra o'sha davrlar uchun foiz stavkalarining o'zgarishi, ma'lumki, foiz stavkalaridan kelib chiqqan holda, ipoteka kreditlari to'g'rilanadi va nihoyat, aholi soni oshishiga aholining o'sishi ham sabab bo'lgan. Empirik tadqiqotda bog'liq o'zgaruvchi (Y) ipoteka kreditlari bo'lib, ikkita mustaqil o'zgaruvchi (X_1) – foiz stavkalari, (X_2) – aholi soni oshishi mavjud. Tadqiqot ishida qo'llash uchun 5 ta ekonometrik vosita tanlangan: chiziqli regressiya, korrelyasiya matrisasi, grafik tarqalish matrisasi, grafik gistogramma va grafik matrisa.

Avvalo, bu boshqa o'zgaruvchining qiymatiga, Y va X_1, X_2 o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan o'zgaruvchining qiymatini prognoz qilish uchun qo'llaniluvchi chiziqli regressiyadir.

$$ Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2, \tag{1} $$

bu yerda: Y – ipoteka kreditlari; X_1 – foiz stavkalari; X_2 – aholi soni oshishi.

4-rasmda chiziqli regressiya modelidan ko'rinib turibdiki, natijaviy o'zgaruvchi (Y) va erkli o'zgaruvchilar (X_1; X_2) o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi. Umuman, erksiz o'zgaruvchi (Y) va erkli o'zgaruvchilar (X_1; X_2) dagi harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish uchun ochish kerak bo'lgan 4 ta eng muhim komponent mavjud. Birinchidan, determinasiya koeffisienti mavjud (Koef.), u kovariatlar (X_1; X_2) bilan izohlangan navtijaviy o'zgaruvchisi (Y) dagi umumiy o'zgarishlar ulushini ko'rsatadi, boshqacha aytganda, (X_1; X_2) ning bir birlik o'zgarishi (Y) ning bir birlik o'zgarishiga olib keladi. Modelga ko'ra, agar X_1 1 %ga

oshsa, Y 2,4 %gacha ko'tarilishi aniq, ammo X_1 1 % o'sishiga nisbatan Y ning 0,3 %ga oshishiga olib keladi

```
      Source |       SS           df       MS      Number of obs   =        14
-------------+------------------------------      F(2, 11)        =     57.64
       Model | 485.796285          2 242.898143   Prob > F        =    0.0000
    Residual | 46.3522362         11 4.21383966   R-squared       =    0.9129
-------------+------------------------------      Adj R-squared   =    0.8971
       Total | 532.148521         13 40.9345016   Root MSE        =    2.0528

-------------+----------------------------------------------------------------
           y |      Coef.   Std. Err.      t    P>|t|     [95% Conf. Interval]
-------------+----------------------------------------------------------------
          x1 |   .2679006   .2278001     1.18   0.264    -.2334841    .7692853
          x2 |   2.379383   .2288033    10.40   0.000      1.87579    2.882976
       _cons |  -75.05947   7.773388    -9.66   0.000    -92.16858   -57.95035
-------------+----------------------------------------------------------------
```

4- rasm Chiziqli regressiya modelining chiqishini talqin qilinishi[9]

Boshqacha qilib aytilsa, Y (ipoteka) va X_2 (aholi o'sishi) o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud, shuning uchun agar aholi soni 1 %ga oshsa, bu ipoteka taqsimotining 2,4 %ga o'sishiga olib keladi, kuzatuv shuni ko'rsatadiki, Y (ipoteka) va X_1 (foiz stavkasi) o'rtasida zaif bog'liqlik mavjud, shuning uchun foiz stavkasi bir marta ko'tariladi. Ipoteka kreditlarining taqsimlanishi 0,3 %ga oshadi.

Ikkinchidan, standart xato (Std.Err.) populyasiyada Y va X o'rtasida haqiqiy bog'liqlik mavjudligini aniqlashda asosiy o'ringa ega. Bu tadqiqot (Y) va (X_1; X_2) o'rtasida ijobiy munosabat mavjudligini aniqlaydi, bu mos ravishda 0,2278001 va 0,2288033. Batafsilroq, (Y) ipoteka kreditlari va (X_1) foiz stavkalari, (X_2) o'z navbatida aholi soni oshishi o'rtasida muqobil gipoteza (H_A) mavjud. Ayni paytda, t-qiymati komponenti bilan bog'liq holda, (Y) ipoteka kreditlari va (X_2) aholi soni oshishi o'rtasida muqobil gipoteza (H_A) yoki statistik jihatdan muhim bog'liqlik mavjudligini ko'rish mumkin, bu 10,4 ni tashkil etadi, bu 1,96 dan sezilarli darajada yuqori bo'lib, 95 % ishonchlilikni tasdiqlaydi. Boshqa tomondan, (Y) va (X_1) uchun natija nol gipotezani (H_0) ko'rsatadi, boshqacha aytganda, (Y) ipoteka va (X_1) foiz stavkalari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik yo'q, bu 1,18 ni tashkil etadi, bu 1,96 dan kam, natija 95 % ishonchlilikni rad etadi.

Ehtimollik qiymati yoki P> |t| ga e'tibor berishga majbur qiladigan yana bir komponent bor. Har bir koeffitsiyent noldan farq qiladigan gipotezani sinab ko'radigan ikki tomonlama p-qiymatlari. Nazariyaga asoslanib, X (erkli o'zgaruvchi) va Y (erksiz o'zgaruvchi) o'rtasidagi statistik jihatdan ahamiyatli munosabatni yoki muqobil gipotezani (H_A) isbotlash uchun p-qiymati 0,05 dan kam bo'lishi kerak. Biroq, p-qiymati natijasi (Y) ipoteka va (X_1) foiz stavkalari o'rtasida nol gipoteza (H_0) mavjudligini ko'rsatadi, chunki ma'lumotlarga asoslangan p-qiymati (Y) va (X_1) 0,264 ni tashkil etadi, bu 0,05 koeffitsiyentidan kattaroqdir.

---

[9] Muallif ishlanmasi

16

Boshqa tomondan, erksiz o'zgaruvchi (Y) va erkli o'zgaruvchi (X_2) muqobil gipotezaga (H_A) ega bo'lib ko'rinadi yoki ular o'rtasida 0,000 ga teng bo'lgan statistik jihatdan muhim bog'liqlik mavjud bo'lib, bu yuqori ahamiyatlilikni anglatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, chiziqli regressiya modelining 4 ta komponenti (Y) bog'liq o'zgaruvchi va (X_2) mustaqil o'zgaruvchi o'rtasidagi muqobil gipotezani (H_A) namoyish etadi, ya'ni aholi o'sishi foiz stavkalarining o'zgarishiga emas, balki ipoteka kreditlarining taqsimlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Keyinchalik, bu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlarini ko'rsatuvchi korrelyasiya matrisasi keladi, bu matrisa o'zgaruvchilari to'g'ri chiziqda qanchalik kuchli va qaysi yo'nalishda bog'langanligini baholash uchun xizmat qiladi.

```
                y        x1       x2

        -------------------------------------
        y   |  1.0000
        x1  |  0.2378   1.0000
        x2  |  0.8797   0.1413   1.0000
```

5-rasm Korrelatsion matrisa[10]

Korrelyatsiya matritsasi tahlilidan ko'rinib turibdiki, (y) bog'liq o'zgaruvchi va (X_1; X_2) erkli o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyasiya yo'q. Shu bilan birga, $0,8797 \approx 0,9$ bo'lgan bog'liq o'zgaruvchi (Y) va mustaqil o'zgaruvchi (X_2) o'rtasidagi korrelyasiya (Y) va (X_1) o'rtasidagi $0,2378 \approx 0,2$ korrelyasiya koeffisientidan kattaroqdir. Ya'ni (U) ipoteka va (X_1) foiz stavkalari o'rtasidagi bog'liqlikdan ko'ra (Y) ipoteka va (X_2) aholi o'sishi o'rtasida haqiqiy bog'liqlik bor. Uchinchisi – o'zgaruvchilar kombinasiyasi o'rtasidagi ikki o'lchovli munosabatlarni ko'rish uchun ishlatiladigan yoyilish diagrammasi matrisasi. Chizma asosan javob o'zgaruvchisi (Y) va tushuntirish o'zgaruvchilari (X_1; X_2) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tekshiradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, qaram o'zgaruvchi (y) – ipoteka kreditlari; mustaqil o'zgaruvchi (X_1) – foiz stavkalari; ikkinchi mustaqil o'zgaruvchi (X_2) aholi o'sishi bo'lib qoldi. Quyida batafsil talqin qilingan yoyilish diarammasi matrisasi keltirilgan (5-rasm).

6-rasmda birinchi ustunda (Y) erksiz o'zgaruvchi ipoteka kreditlari X o'qi, ikkinchi ustunda (X_1; X_2), mustaqil o'zgaruvchan foiz stavkalari X o'qi, uchinchi va oxirgi ustunda (X_2) aholi sonining o'sishi X o'qi. Umuman, ipoteka kreditlari bo'lgan (Y) va aholi o'sishi (X_2) o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, birinchi ustunda ipoteka kreditlarining ko'payishi (Y) aholi soni oshishiga (X_2) sabab bo'lishi aniq ko'rinib turibdi, uchinchi ustunda ham xuddi shunday tendensiya mavjud bo'lib, bu yerda aholi soni oshishi (X_2) ipoteka kreditlari taqsimotining (Y) o'sishiga olib keladi.

---

[10] Muallif ishlanmasi

Biroq ipoteka (Y) va foiz stavkalari (X_1) o'rtasida o'zaro bog'liqlik yo'q, hatto matrisadan ko'rinib turibdiki, erkli o'zgaruvchi (X_1) qanchalik o'zgarmasin, erksiz o'zgaruvchi bo'lgan ipoteka (Y) taqsimotiga kamroq ta'sir qiladi. Xuddi shu narsa birinchi ustundagi (Y) ipoteka uchun ham amal qiladi, u (X_1) foiz stavkalari bilan bog'liq bo'lish ehtimoli kamroq.

6-rasm. Tarqalish matritsasining talqini[11]

Umuman, tarqalish matrisasiga asoslanib, (Y) va (X_2) o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Aniqroq aytilsa, ipoteka kreditlari va aholi o'sishi o'rtasida muqobil gipoteza (H_A) mavjud.

Erksiz o'zgaruvchi (Y) o'rtasidagi haqiqiy munosabatni ifodalaydi. Batafsilroq aytilsa, aholi soni oshishi (X_2) va ipoteka kreditlari (Y) o'rtasida muqobil gipoteza (H_A) mavjud, chunki aholi soni ko'payar ekan, O'zbekistonda foiz stavkalarining o'zgarishidan qat'iy nazar, ipoteka kreditlari taqsimotida ham xuddi shunday o'sish tendensiyasi kuzatiladi, bu esa sekyuritizatsiya jarayonining yuqori salohiyatini bildiradi. Xulosa qilib aytganda, ekonometrik tahlilga asoslanib, ta'kidlash kerakki, ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar yaratilishi tijorat banklari uchun ipoteka kreditlarini moliyalashtirish uchun mablag' jalb qilishning yangi yo'llarini ochishi mumkin.

"Toshkent fond birjasi infratuzilmasi va O'zbekistonda kapital bozorini takomillashtirish chora-tadbirlari" deb nomlangan uchinchi bobda UCI (Uzbekistan Composite Index) likvidligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. UCI (Uzbekistan Composite Index) qiymatini kuzatib boruvchi ETF (Birja savdo fondlari) ning joriy etilishi xorijiy va mahalliy investorlarni UCI (Uzbekistan Composite Index)ga investitsiya kiritish uchun jalb qilish uchun istiqbolli tanlov bo'ladi. Lekin birinchi navbatda, ETFlarning mohiyatini batafsil tushuntirish lozim.

---

[11] Muallif ishlanmasi

Barclays Bank ma'lumotlariga ko'ra: "Birja fondlari (ETF) keng ko'lamli bozorlarga ta'sir qilishni ta'minlovchi ommaviy investisiyalarning mashhur turidir. Birja fondlari (ETF) diversifikasiyalangan, ammo arzon portfelni yaratmoqchi bo'lgan investorlar orasida mashhurdir. ETFlar investorlarga butun dunyo bo'ylab bozorlarning keng doirasiga kirishni taklif qiladi".

ETFning hamma xususiyatlari UCI (Uzbekistan Composite Index) qo'llanilishi uchun juda mos keladi, boshqacha aytganda, UCI (Uzbekistan Composite Index) qiymatini kuzatib boruvchi ETFni yaratish O'zbekistonda umumiy kapital bozori infratuzilmasini takomillashtirishga olib keladi". Bundan tashqari, ko'pgina chakana mahalliy investorlar o'zlarida mavjud bo'lgan mablag'larni tasarruf etish jiddiy cheklangan, buning sababi O'zbekistonda moliya institutlari tomonidan investisiya mahsulotlari juda cheklangan. Bundan tashqari, mahalliy chakana investorlar o'z jamg'armalarini bitta aksiya yoki obligasiyaga investisiya qilishga to'liq ishonchlari komil emas, shuning uchun UCI (Uzbekistan Composite Index) ETFning joriy etilishi mahalliy chakana investorlarni UCI (Uzbekistan Composite Index) fond indeksiga investitsiya kiritishga jalb qilishi mumkin, chunki ETFlar tabiatan investisiya mahsulotlarining xavfli turlari bo'lib, mahalliy chakana investorlarga mos keladi.

7- rasm. "Toshkent" fond birjasidagi tebranishlar vizual chiziqli diagrammasi ("Toshkent" fond birjasi veb-sayti)[12]

Umuman, nazariyaga asoslanib, 7-rasmda bir yil davomida bir necha katta tebranishlar bo'lganini yoki ular aytganidek, O'zbekiston fond bozorida turbulentlik sodir bo'lganini ko'rsatadi, bu esa iqtisodiyotda yuqori volatillik mavjudligini anglatadi. Jumladan 2023-yil 23-oktyabr va 2024-yil 21-oktyabr oralig'ida UCI (Uzbekistan Composite Index) qiymati keskin tebranib turganini va deyarli 680 dan

---

[12]Ma'lumotlar https://uzse.uz/price_indices saytidan to'plangan

640 ga biroz pastga tushganini ko'rish mumkin. Uni baholash uchun hatto aniq parametr ham yo'q, chunki qiymat mavhum tushunchadir. Grafikni o'rganayotganda, fond birjasidagi holatni real ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan bog'liq hech qanday aniq ma'lumot topish mumkin emas. Bundan tashqari, ochiq qiziqish, hajm, o'rtacha hajm, kunlik diapazon kabi asosiy texnik tahlil ko'rsatkichlari taqdim etilmaydi. Bunda Candle, Baseline, Mountain va Bar singari boshqa mavjud diagramma formatlari yetishmasligi namoyon bo'ladi.

Yana bir kamchilik shundaki, yillik ma'lumotlar haqiqatan ham O'zbekiston iqtisodiyoti haqida noto'g'ri tasavvur beradi. Aniqrog'i, O'zbekiston iqtisodiyoti va UCI (Uzbekistan Composite Index) o'rtasida hech qanday bog'liqlik mavjud emas. Indeks, shuning uchun UCI (Uzbekistan Composite Index) qiymatining harakati hatto UCI (Uzbekistan Composite Index) qiymatining taqdim etilgan yillik tebranishlar o'rtasida aniq bog'liqlik yo'q, shuning uchun bu holda investorlar 1 yillik davrdagi ulkan tebranishlardan havfsirashlari mumkin, bu mamlakat iqtisodiy beqarorlik va jadval bo'yicha defolt xavfi yuqori ekanligini anglatadi.

8-rasmda UCI benchmark fond indeksi mamlakatdagi biznes sektoridagi iqtisodiy qisqarish yoki qisqarishni ko'rsatadi. Shu sababli, birinchidan, jadval NAPP tomonidan tartibga solinadigan "Regulatory Sandbox" orqali UCI ETF ishga tushirilgunga qadar vaqtincha to'xtatilishi kerak.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda asosiy daromadli aktivlarni yoki "Toshkent" fond birjasi obligatsiyalari bozorini rag'batlantirish yo'llarini, boshqacha aytganda, taqsimlangan kitob texnologiyasi yoki qisqacha DLT yordamida korporativ va davlat obligatsiyalarining likvidligini qanday oshirish mexanizmi o'rganildi.

8-rasm. Taqsimlangan reestr texnologiyasidan (DLT) foydalangan holda blokcheynga asoslangan qayd etilgan daromadli tuzilma[13]

Albatta, "Toshkent" fond birjasi rahbariyati ushbu innovasion tizimni kapital bozori ishtirokchilari orasida tatbiq etish maqsadida Istiqbolli loyihalar milliy

---

[13] Muallif ishlanmasi

